

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

35-mavzu: “Mening portfoliom”

Annotatsiya: Mazkur dars 9-11-sinf o‘quvchilarida o‘zini anglash, shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish, maqsad sari intilish, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik hamda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. “Mening portfoliom” mavzusi orqali o‘quvchilarga portfolio yuritishning mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta’lim va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, shuningdek, insonning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’siri haqida tushuncha beriladi.

Dars davomida o‘quvchilar o‘z yutuqlari, qiziqishlari, bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish orqali shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydilar. Turli hayotiy misollar, muhokamalar, ijodiy topshiriqlar, taqdimotlar va guruhli faoliyatlar orqali portfolio yaratishning bosqichlari hamda uni mazmunli shakllantirish yo‘llarini o‘rganadilar.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonch, kelajak kasbiga ongli munosabat, maqsad qo‘yish va unga erishish motivatsiyasi shakllantiriladi. Shuningdek, portfolio yuritish orqali o‘quvchilarda:

- mustaqil fikrlash;
- o‘z faoliyatini tahlil qilish;
- vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish;
- o‘z yutuqlarini qadrlash;
- shaxsiy mas’uliyatni his qilish kabi muhim hayotiy kompetensiyalar rivojlantiriladi.

Mazkur dars o‘quvchilarning o‘z salohiyatini anglashiga, ijodiy va intellektual imkoniyatlarini namoyon etishiga hamda kelajakdagi ta’limiy va kasbiy faoliyatiga ongli ravishda tayyorgarlik ko‘rishiga xizmat qiladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda portfolio tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida chuqur tasavvur hosil qilish, portfolio yuritishning shaxsiy rivojlanish va kelajakdagi muvaffaqiyatdagi o‘rnini misollar orqali tushuntirish.

2. O‘quvchilarning o‘z yutuqlari, bilimlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, portfolio orqali o‘z salohiyatini namoyon etish hamda maqsad sari ongli ravishda harakat qilish mumkinligini amaliy misollar asosida ko‘rsatish.

3. Zamonaviy jamiyatda portfolio yuritishning ahamiyati, grant dasturlari, tanlovlar va kasbiy faoliyatdagi o‘rni haqida aniq tushuncha berish, raqamli va elektron portfolio yaratish imkoniyatlari bilan tanishtirish.

4. O‘quvchilarda o‘z ustida ishlash, kelajak maqsadlarini aniq belgilash, vaqtni samarali rejalashtirish, erishilgan yutuqlarni qadrlash va muntazam rivojlanishga intilish motivatsiyasini kuchaytirish, ularda shaxsiy mas’uliyat va o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar: Portfolio insonning bilimlari, yutuqlari, intilishlari va shaxsiy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim hayotiy vosita hisoblanadi. U o‘quvchining nafaqat erishgan natijalarini, balki uning mehnatsevarligi, mas’uliyati, izlanishi va kelajak sari intilishini ham namoyon etadi. Portfolio ustida muntazam ishlaydigan o‘quvchi asta-sekin o‘z maqsadlarini aniq belgilashga, o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini anglashga hamda o‘z ustida izchil ishlashga odatlanadi. Shu jihatdan portfolio shaxsning o‘zini anglash va rivojlantirishida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“Mening portfoliom” mavzusi o‘quvchilarga portfolio shunchaki hujjatlar yoki maqtoov yorliqlar yig‘indisi emas, balki insonning o‘z kelajagini ongli ravishda qurishga bo‘lgan intilishi, muvaffaqiyat sari tashlagan qadamlari va shaxsiy rivojlanish tarixini aks ettirishini anglatadi. Portfolio yuritish jarayonida o‘quvchi o‘zining bilim va qobiliyatlarini, ijodiy hamda intellektual salohiyatini, tashabbuskorligi va faolligini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa unda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi hamda kelajak maqsadlarini yanada aniqroq tasavvur qilishiga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda faqat bilimli bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Inson o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olishi, o‘z ustida ishlashi va erishgan natijalarini to‘g‘ri taqdim qila bilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Portfolio aynan ana shu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. U o‘quvchilarda mas’uliyat, tartiblilik, mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatini tahlil qilish kabi muhim hayotiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Shuningdek, portfolio yuritish orqali o‘quvchilar vaqtni qadrlashni, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishni va yutuqlarini tizimli ravishda jamlab borishni o‘rganadilar.

Inson hayotidagi katta muvaffaqiyatlar ko‘pincha kichik, ammo mazmunli harakatlardan boshlanadi. Biror tanlovdagi ishtirok, o‘qilgan kitob, olingan sertifikat, yozilgan maqola, tayyorlangan loyiha yoki maktabdagi faollik kabi natijalar kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli har bir o‘quvchi o‘zining har qanday ijobiy yutug‘ini qadrlashi va uni rivojlanish yo‘lidagi muhim tajriba sifatida qabul qilishi lozim.

Shaxsiy rivojlanish, bilim olishga intilish, halol mehnat qilish va o‘z ustida muntazam ishlash inson muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Agar o‘quvchi bugundan boshlab o‘z yutuqlari va tajribalarini portfolio orqali tartibli ravishda jamlab borsa, kelajakda o‘ziga ishonadigan, maqsadli, tashabbuskor va

raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi. Portfolio esa ana shu rivojlanish yo'lini aks ettiruvchi shaxsiy muvaffaqiyat ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

O'quvchilar portfolio tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini aniq tushuntira oladilar hamda portfolio insonning shaxsiy rivojlanishidagi muhim vosita ekanligini izohlab beradilar.

"Mening portfoliom" g'oyasining mazmunini anglydilar, ya'ni portfolio insonning bilimlari, yutuqlari, qobiliyatlari va kelajak maqsadlarini aks ettiruvchi shaxsiy rivojlanish xaritasi ekanligini tushuntiradilar.

Tartibsizlik, maqsadsizlik, vaqtni samarasiz o'tkazish va o'z ustida ishlamaslik kabi omillarning inson rivojlanishiga salbiy ta'sirini misollar orqali asoslaydilar.

O'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat, maqsad qo'yish va o'z faoliyatini tahlil qilish tushunchalarini to'g'ri talqin qiladilar.

2. Hissiy va qadriy:

O'quvchilarda o'z yutuqlarini qadrlash, o'z ustida ishlash va kelajak maqsadlari sari intilishga nisbatan ichki ehtiyoj hamda ijobiy motivatsiya shakllanadi.

Bilim olish, izlanish, mehnatsevarlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi qadriyatlarga nisbatan hurmat hissi kuchayadi.

O'zining qobiliyati va imkoniyatlariga ishonch ortadi, kelajak kasbga ongli munosabat shakllanadi.

O'quvchilarda "men ham muvaffaqiyatga erisha olaman" degan ichki ishonch va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish rivojlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

O'quvchilar portfolio yaratish va uni tizimli yuritish ko'nikmalarini egallaydilar: sertifikatlar, diplomlar, ijodiy ishlar, loyihalar va boshqa yutuqlarni tartibli jamlashni o'rganadilar.

O'z qiziqishlari, qobiliyatlari va erishgan natijalarini tahlil qilish hamda ularni portfolio orqali namoyon etish malakasi shakllanadi.

Kelajak maqsadlarini rejalashtirish, vaqtni samarali taqsimlash va o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Elektron portfolio yaratish, zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha dastlabki amaliy tajribaga ega bo'ladilar.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

Sinfda o'zaro qo'llab-quvvatlash, bir-birining yutuqlarini qadrlash va ijobiy motivatsiyaga asoslangan muhit shakllanadi.

O'quvchilarda ochiq muloqot qilish, o'z fikrini erkin ifodalash va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish odatlari rivojlanadi.

Guruhli topshiriqlar, muhokamalar va taqdimotlar orqali o'quvchilar bir-biriga portfolio yuritishning ahamiyatini tushuntiradilar hamda shaxsiy rivojlanishga oid tajribalar bilan o'rtoqlashadilar.

O'quvchilar o'z kelajagini ongli ravishda rejalashtirish, jamiyatda faol va raqobatbardosh shaxs bo'lib shakllanish uchun o'z ustida ishlash zarurligini anglaydilar hamda bu yo'lda faol bo'lishga intiladilar.

Metapredmet: Metapredmet yondashuv o'quvchilarda turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llanadigan umumiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. "Mening portfoliom" mavzusidagi mazkur darsda esa bu yondashuv o'quvchilarga o'z qobiliyatlari, yutuqlari, qiziqishlari va kelajak maqsadlarini turli fanlar hamda hayotiy tajribalar bilan bog'liq holda anglash imkonini beradi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar portfolio yuritish orqali o'z ustida ishlash, mustaqil fikrlash, maqsad qo'yish, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'zini namoyon etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan:

Adabiyot: O'quvchilar ilm, mehnat, orzu va muvaffaqiyat haqida aytilgan maqol hamda hikmatli so'zlarni topadilar ("Mehnat qilgan rohat ko'rar", "Ilm insonning ikki qanoti", "Yaxshi niyat – yarim davlat"). Har bir hikmatning mazmunini sharhlab, uni shaxsiy rivojlanish va portfolio yuritish bilan bog'laydilar.

Matematika: O'quvchilar vaqtni rejalashtirish va maqsad sari harakat qilishga oid oddiy hisob-kitoblarni bajaradilar. Masalan, bir oy davomida o'qilgan kitoblar soni, qatnashilgan tadbirlar yoki o'zlashtirilgan yangi ko'nikmalar bo'yicha jadval tuzadilar hamda natijalarni tahlil qiladilar. Bu orqali portfolio yuritishda tizimlilik va rejalilikning ahamiyatini tushunadilar.

Muloqot: Juftlik yoki kichik guruhlarda "Mening eng katta yutug'im", "Kelajakdagi kasbim" yoki "Men qanday portfolio yaratmoqchiman?" mavzularida qisqa nutq va taqdimotlar tayyorlaydilar. Bu faoliyat o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifodalash va o'zini taqdim eta olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tarbiya: O'quvchilar "Mening kelajak rejam" yoki "Mening muvaffaqiyat xaritam" mavzusida mind-map yaratadilar. Unda o'z maqsadlari, qiziqishlari, rivojlantirmoqchi bo'lgan qobiliyatlari va erishmoqchi bo'lgan yutuqlarini aks ettiradilar.

Mazkur faoliyatlar orqali o'quvchilar portfolio yuritishning nafaqat ta'limiy, balki hayotiy ahamiyatini ham anglay boshlaydilar hamda o'z kelajagini ongli ravishda rejalashtirishga intiladilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga ikki xil papka olib kiradi. Birinchisi qalin, rang-barang, ichida sertifikatlar, loyihalar, diplomlar, suratlar va turli ishlardan namunalari bor. Ikkinchisi esa deyarli bo'sh.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bugungi "Kelajak soati" mashg'ulotimiz sizlarning hayotingizdagi eng muhim mavzulardan biriga bag'ishlanadi. Mavzu nomi – "Mening portfoliom".

Papkalarini ko'rsatadi.

Tasavvur qilinglar, ikki bitiruvchi bir xil universitetga hujjat topshirdi. Baholari ham deyarli bir xil. Lekin qabul komissiyasi oldiga mana shu ikki papka qo'yildi. Sizningcha, qaysi biri ko'proq e'tibor tortadi?

O'quvchilar fikr bildiradi.

O'qituvchi: Ha, bugungi dunyoda inson faqat "men yaxshi o'qiyman", "men ko'p narsani bilaman" deb emas, balki o'zini qanday namoyon qila olishi bilan ham e'tibor tortadi. Ayniqsa sizlar kabi bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun bu juda muhim. Chunki oldinda universitet, grant, kasb, suhbatlar va katta hayot turibdi.

Aytinglar-chi, portfolio deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, portfolioda nimalar bo'lishi mumkin?

O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi doskaga o'quvchilar aytgan fikrlarni yozadi:

sertifikat,

til bilish,

loyiha,

sport,

volontyorlik,

ijod,

IT,

startap,

maqola,

tanlov va hokazo.

O'qituvchi: Juda yaxshi. Aslida portfolio – bu insonning shaxsiy yutuqlari xaritasi. U sizning kim ekanligingizni, nimaga qiziqishingizni, qanday maqsadlaringiz borligini va nimalarga qodir ekanligingizni ko'rsatadi.

Portfolio so'zi italyan tilidagi "portafoglio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hujjatlar saqlanadigan papka", "qimmatli materiallar to'plami" degan ma'nolarni anglatadi. Lekin bugungi zamonaviy dunyoda portfolio oddiy papkadan ancha kattaroq tushunchaga aylangan.

Sizningcha, nega ayrim o'quvchilar grant yutadi, xalqaro dasturlarga kiradi yoki yaxshi ish topadi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Chunki ular faqat baho yig'magan, o'z ustida ishlagan, qobiliyatini namoyon qilgan va eng muhimi – o'z yo'lini boshqalarga ko'rsata olgan. Bugungi kunda faqat yaxshi baholar yetarli emas. Insonning tashabbuskorligi, ijodkorligi, ijtimoiy faolligi, loyihalardagi ishtiroki ham juda muhim.

Siz qatnashgan tanlovlar, olgan sertifikatlaringiz, yozgan maqolalaringiz, sport yoki san'atdagi yutuqlaringiz – bularning barchasi sizning shaxsiy rivojlanish tarixingizdir.

Hozir hammangiz telefoningizdagi galereyani bir soniyaga eslang. Unda turli suratlar saqlanadi, to'g'rimi? Portfolio ham xuddi shunday. Faqat u sizning hayotingizdagi eng muhim “kadrlar”ni yig'adi – yutuqlaringizni, tajribangizni, mehnatingizni va orzularingizni.

Tasavvur qiling, siz kelajakda nufuzli oliygohga hujjat topshiryapsiz yoki orzuingizdagi kasb egasiga aylanish arafasidasiz. Ana shunda sizni boshqalardan ajratib turadigan jihat nima bo'ladi? Albatta, sizning portfoliingiz.

Aziz o'quvchilar, bugungi mashg'ulot davomida biz portfolio nima uchun kerakligi, uni qanday shakllantirish mumkinligi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatlaringizda uning o'rni haqida suhbatlashamiz. Siz o'zingizning kuchli tomonlaringizni anglashga, maqsadlaringizni belgilashga va kelajak rejangizni yanada aniqroq tasavvur qilishga harakat qilasiz.

Shuni unutmangki, bugun yig'ilgan kichik yutuqlar ertangi katta muvaffaqiyatlarning poydevoridir.

Kelinglar, endi birgalikda o'z kelajagimiz sari ilk qadamlardan biri bo'lgan “Mening portfoliom” mavzusini boshlaymiz.

II. ASOSIY QISM (30 DAQIQA)

O'qituvchi: Bugun sizlar bilan portfolioning naqadar muhimligi haqida gaplashyapmiz. Lekin bir narsani unutmaslik kerak: iste'dodning ochilishi faqat insonning o'ziga emas, unga yaratilgan imkoniyatlarga ham bog'liq.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, xorijiy tillarni o'rganishi, zamonaviy kasblarni egallashi, xalqaro tanlov va grantlarda qatnashishi uchun juda katta sharoitlar yaratilmoqda. Eng muhimi, davlat yoshlarning faqat “baho olishi”ni emas, o'z qiziqishi, qobiliyati va iste'dodini topib, uni rivojlantirishini qo'llab-quvvatlamogda. Kelinglar, hozir shu imkoniyatlar va yoshlarga berilayotgan e'tibor haqida videorolikni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Har bir yoshning o'z yo'li bor

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/604

O‘qituvchi: Shuni unutmanglar: bugungi O‘zbekistonda imkoniyat eshiklari ochiq – endi qaysi cho‘qqiga chiqishingizni sizning bilimga chanqoqligingiz, mehnatingiz va portfoliingiz hal qiladi.

O‘qituvchi doskaga yozadi:

KELAJAK SARI ILK QADAM: PORTFOLIO NIMA UCHUN KERAK?

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, har bir inson hayotida davomida: “Men kim bo‘laman?”, “Kelajakda qanday muvaffaqiyatlarga erishaman?”, “Meni boshqalardan ajratib turadigan jihatlar nima?” degan savollarga duch keladi.

Bugungi mashg‘ulotimiz aynan ana shu savollarga javob topishga yordam beradi. Chunki, insonning kelajagi uning bugungi harakatlari, bilimlari va yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq.

Masalan, siz kelajakda nufuzli universitet talabasi yoki malakali mutaxassis bo‘lasiz. Sizdan: “Qanday yutuqlarga erishgansiz?”, “Qaysi tanlovlarda qatnashgansiz?”, “Nimalarga qiziqasiz?” deb so‘rashdi.

Ana shunda sizning portfoliingiz siz haqingizdagi eng muhim ma‘lumotlarni namoyon etadi.

Portfolio – bu insonning yutuqlari, tajribasi, qiziqishlari va rivojlanish yo‘lini aks ettiruvchi shaxsiy “muvaffaqiyatlar xaritasi”dir. U insonning o‘z ustida ishlashi, izlanishi va maqsad sari intilishini ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda portfolio faqat hujjatlar to‘plami emas, balki shaxsning o‘zini namoyon etish vositasi sifatida qaralmoqda.

Interaktiv daqiqa: “Men nimalar qilganman?”

O‘qituvchi: Kelinglar, hozir kichik bir tajriba o‘tkazamiz. Men sizlarga turli faoliyatlarni aytaman. Agar siz o‘sha ishni qilgan bo‘lsangiz, qo‘lingizni ko‘taring.

“Tanlovda qatnashganman.”

“Sertifikat olganman.”

“Biror tadbirni tashkil qilishda yordam berganman.”

“Sport yoki san‘at bilan shug‘ullanaman.”

“Biror loyiha yoki aksiyada ishtirok etganman.”

“Til kursiga qatnaganman.”

“Ijtimoiy tarmoqqa foydali kontent joylaganman.”

“Biror narsani mustaqil o‘rganib ko‘rganman.”

O‘quvchilar qo‘l ko‘tarishadi.

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, sizlarning aksariyatingizda allaqachon portfolio uchun materiallar bor. Faqat ko‘pchilik o‘zidagi imkoniyat va yutuqlarni oddiy narsa deb o‘ylaydi. Aslida esa har bir tajriba, har bir harakat va har bir kichik yutuq sizning kelajagingiz uchun muhim qadam hisoblanadi. Portfolio aynan ana shu yo‘lni tartibli va ta’sirli tarzda namoyon qiladi.

O'qituvchi doskaga yozadi:

HAR BIR YUTUQ QADRLIDIR

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, ko'pchiligingiz ayrim yutuqlaringizni oddiy qabul qilishingiz mumkin. Balki kimdir biror tanlovda qatnashgandir, kimdir sport musobaqasida g'olib bo'lgandir, yana kimdir maktab tadbirida faol ishtirok etgandir. Ba'zan inson o'zining kichik muvaffaqiyatlarini sezmaydi ham. Lekin shuni yoddan chiqarmang, aziz o'quvchilar! Katta muvaffaqiyatlar kichik qadamlardan boshlanadi.

Portfolio ana shu kichik yutuqlarni bir joyga yig'ib, insonning rivojlanish tarixini yaratadi.

Masalan: birinchi diplom, ilk sertifikat, chop etilgan maqola, o'qilgan kitoblar, tayyorlangan loyiha, yutilgan musobaqa, ijtimoiy tadbirlardagi faollik – bularning barchasi sizning shaxsiy o'sishingizni ko'rsatadi.

Ba'zan insonning birgina tashabbusi yoki kichik bir harakati uning kelajagini o'zgartirib yuborishi mumkin. Muhimi, harakatdan to'xtamaslik va o'z ustida ishlashdir.

Kelinglar, shu o'rinda dunyoning TOP universitetlari qatorida turuvchi, AQShdagi mashhur "Ivy League" ("Pechak ligasi") universitetlaridan biri Kornell universiteti talabasi, yurtdoshimiz Alpomish Mahmudovdan jahonning kuchli ta'lim dargohlariga kirish uchun portfolioni qanday shakllantirish kerakligi haqida tavsiyalarini eshitamiz.

Vizual kontent

Alpomish Mahmudov: "Portfolioni shakllantirishga oid 3 tavsiya"

<https://youtu.be/L9T8TvsjG2E>

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, aziz o'quvchilar, katta muvaffaqiyatlar birdaniga paydo bo'lmaydi – ular bugundan boshlangan izlanish, kichik yutuqlar va to'g'ri shakllantirilgan portfolio orqali qadamma-qadam quriladi.

O'qituvchi doskaga yozadi:

PORTFOLIO – O'Z USTIDA ISHLASH IJODXONASI

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, portfolio yuritish insonni tartib-intizomga, mas'uliyatga va o'z ustida ishlashga o'rgatadi. Chunki portfolio tayyorlash jarayonida inson o'z faoliyatiga nazar tashlaydi va quyidagi savollar ustida o'ylaydi:

Men nimaga qiziqaman?

Qanday yutuqlarga erishdim?

Qaysi jihatlarimni rivojlantirishim kerak?

Kelajakdagi maqsadim nima?

Bu esa insonda refleksiv fikrlashni shakllantiradi. Ya'ni inson o'z faoliyatini tahlil qilishni o'rganadi.

Masalan, ayrim o'quvchilar texnologiyaga qiziqadi, boshqalari san'at yoki sportga moyil bo'ladi. Portfolio ana shu qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Shuning uchun portfolio yuritayotgan o'quvchi asta-sekin:

o'z maqsadini aniq belgilashga;

vaqtni to'g'ri rejalashtirishga;

o'z ustida ishlashga;

natijalarni baholashga o'rganadi.

Kelinglar, hozir birgalikda kichik "o'zini anglash" mashqini qilib ko'ramiz. Men savol beraman, sizlar esa ochiq va samimiy javob berishga harakat qilinglar.

Agar sizning portfolioningizni hozir ochib ko'rsak, unda eng ko'p qaysi yo'nalish aks etgan bo'lardi: sportmi, ijodmi, fanmi, ITmi yoki ijtimoiy faollikmi?

O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: Siz oxirgi bir yil ichida o'zingiz bilan faxrlangan qaysi ishni qilgansiz? Katta yutuq bo'lishi shart emas.

O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: Tasavvur qiling, 5 yildan keyingi "siz" bugungi portfolioningizga qaradi. Sizningcha, u nimani ko'paytirishni maslahat bergan bo'lardi?

O'quvchilar fikr bildiradi.

O'qituvchi: Ana shu savollar insonni o'z ustida ishlashga undaydi. Chunki portfolio faqat hujjatlar papkasi emas, u insonning o'zini anglash va rivojlantirish jarayonidir.

Ko'pchilik portfolio deganda faqat diplom yoki sertifikatlarni tushunadi. Aslida esa insonning jamiyatdagi faolligi, boshqalarga foydasi tegayotgan ishlari ham portfolio uchun juda katta ahamiyatga ega.

Ayniqsa, bugungi kunda volontyorlik faoliyati dunyoning eng kuchli universitetlari va tashkilotlari tomonidan yuqori baholanmoqda. Chunki volontyorlik insonning faqat bilimni emas, uning mas'uliyati, tashabbuskorligi, liderligi va odamlar bilan ishlash qobiliyatini ham namoyon qiladi. Kelinglar, hozir volontyorlik faoliyati yoshlar hayotini qanday o'zgartirayotgani haqida videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

"Tabassum" inklyuziv ustaxonasidamiz

<https://youtu.be/nyYohMDsFyM>

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, ba‘zan insonning eng katta yutug‘i medal yoki sertifikat emas, balki kimningdir hayotiga foyda bera olganidir. Ana shunday tajribalar esa portfolioni nafaqat kuchli, balki mazmunli ham qiladi.

O‘qituvchi doskaga yozadi:

ELEKTRON PORTFOLIO VA ZAMONAVIY IMKONIYATLAR

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi kunda dunyo raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Hayotimizning deyarli barcha sohaları internet va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Ta‘lim tizimida ham zamonaviy yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Ana shunday innovatsion vositalardan biri – elektron portfolio hisoblanadi.

Elektron portfolio – bu o‘quvchining bilimlari, yutuqlari, ijodiy ishlari, loyihalari va shaxsiy rivojlanishini raqamli shaklda jamlash, saqlash va namoyish etish vositasidir. Oddiy qog‘oz shaklidagi portfolio ma‘lum bir joyda saqlansa, elektron portfolio istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkonini beradi.

Bugungi yoshlar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga qiziqadi. Shu sababli elektron portfolio nafaqat qulay vosita, balki o‘quvchining raqamli kompetensiyalarini rivojlantiruvchi muhim platforma ham hisoblanadi.

Elektron portfolio quyidagi imkoniyatlari bilan ahamiyatlidir:

ma‘lumotlarni uzoq muddat xavfsiz saqlash;

materiallarni tezkor yangilab borish;

rasm, video, audio va taqdimotlarni joylashtirish;

yutuqlarni tartibli tizimlashtirish;

portfolio materiallarini boshqalar bilan tez ulashish imkoniyati.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, tasavvur qiling, siz biror grant dasturiga yoki universitet tanloviga hujjat topshiryapsiz. Sizning barcha yutuqlaringiz, loyihalaringiz va sertifikatlarinigiz elektron portfolio shaklida tartibli joylashtirilgan bo‘lsa, bu siz haqingizda ijobiy taassurot uyg‘otadi. Chunki, zamonaviy dunyoda insonning o‘zini taqdim eta olish madaniyati ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda yoshlar elektron portfolio yaratishda turli platformalardan foydalanmoqdalar. Jumladan:

Google Drive – hujjat va sertifikatlarni saqlash uchun;


Canva – zamonaviy dizayn asosida portfolio yaratish uchun;

Power Point – taqdimot shaklidagi portfolio tayyorlash uchun;

shaxsiy blog yoki saytlar – o‘z ijodiy ishlari va loyihalarini namoyish etish uchun xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, bugungi kunda dunyo bo‘ylab millionlab yoshlar va mutaxassislar LinkedIn platformasidan ham faol foydalanmoqda. LinkedIn – bu oddiy ijtimoiy tarmoq emas, balki insonning bilimlari, ko‘nikmalari, loyihalari, sertifikatlari va yutuqlarini namoyish etuvchi professional platformadir. Ko‘plab

universitetlar, xalqaro tashkilotlar va yirik kompaniyalar yoshlarning aynan LinkedIn profiliga ham e'tibor qaratmoqda. Chunki u yerda insonning faolligi, qiziqishlari va rivojlanish yo'li yaqqol ko'rinadi.



Tasavvur qiling, siz hali maktab o'quvchisi bo'lsangiz ham, kelajakdagi kasbingizga oid loyihalar, sertifikatlar, volontyorlik ishlari yoki ijodiy faoliyatingizni LinkedIn orqali dunyoga ko'rsata olasiz. Balki aynan shu profil sizga kelajakda grant, stajirovka yoki katta imkoniyatlar eshigini ochib berar.

Kelinglar, hozir juda qiziq bir tajriba qilib ko'ramiz. Tasavvur qiling, bugunning o'zida siz haqingizda internetda "professional sahifa" ochildi. U yerga atigi 3 ta ma'lumot yozish mumkin. Siz o'zingiz haqingizda nimani yozgan bo'lardingiz?

Masalan:

“IELTS 7.0 uchun tayyorlanyapman”

“Robototexnika bo'yicha loyiha qilganman”

“Maktabdagi media guruhida faolman”

O'qituvchi: Endi 30 soniyada o'zingizning “mini profil”ingizni tuzing. Qani, kimning profili eng qiziq va kuchli chiqar ekan?

O'quvchilar ishlashadi.

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, aslida sizlarning har biringizda portfolio uchun material bor. Faqat uni to'g'ri ko'rsatish va rivojlantirish kerak. Balki hozir oddiy tuyulayotgan mashg'ulot, kichik loyiha yoki sertifikat ertaga sizning eng katta ustunligingizga aylanishi mumkin.

Elektron portfolio o'quvchini faqat material yig'ishga emas, balki o'z faoliyatini tahlil qilishga ham o'rgatadi. Chunki, inson har safar yangi yutuq qo'shganida o'z rivojlanish bosqichlarini ko'ra boshlaydi. Bu esa unda o'ziga bo'lgan ishonch va motivatsiyani kuchaytiradi.

Aziz o'quvchilar, kelajak – zamonaviy texnologiyalarni biladigan, o'z ustida ishlaydigan va o'z imkoniyatlarini to'g'ri namoyon eta oladigan yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun bugundan boshlab siz ham o'z elektron portfolioningizni shakllantirishni boshlang. Chunki, bugungi kichik tajriba – ertangi katta muvaffaqiyatning poydevoriga aylanishi mumkin.

Kelinglar, endi “El-yurt umidi” jamg'armasi ijrochi direktori, dunyoning TOP universitetlarida ta'lim oluvchi yoshlar uchun grant dasturlariga tanlovlar tashkil qilib va o'tlazib keladigan ekspert Gulnoza Ismoilovanning universitetlarni tanlash, ularga hujjat topshirish bo'yicha tavsiyalarini tinglaymiz.

Vizual kontent

Xorijda o'qish bo'yicha eng ko'p beriladigan savollarga Gulnoza Ismoilovadan javoblar

<https://youtu.be/IODaM5f57eE>

Pedagog: Ko'rdingizmi, aziz o'quvchilar, TOP universitetga kirish yo'li faqat hujjat topshirishdan iborat emas. Inson avvalo o'z maqsadini aniq belgilashi, qaysi davlat va universitet uning qiziqishlari hamda kelajak rejalari uchun mos ekanini to'g'ri tanlay olishi kerak. Chunki to'g'ri tanlov – kelajakdagi muvaffaqiyatning eng muhim bosqichlaridan biridir.

O'qituvchi doskaga yozadi:

KUCHLI VA MAZMUNLI PORTFOLIO YARATISH STRATEGIYASI

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, har bir insonning hayotida uning mehnati, izlanishi va intilishlarini namoyon etadigan muhim belgilar bo'ladi. Kimdir o'z bilimlari bilan ajralib turadi, kimdir ijodkorligi yoki tashabbuskorligi bilan e'tibor qozonadi. Biroq insonning barcha yutuqlarini bir tizimga solib, uni aniq va mazmunli shaklda ko'rsata olishi ham katta mahorat hisoblanadi. Ana shu jihatdan kuchli portfolio insonning shaxsiy rivojlanish pasporti vazifasini bajaradi.

Shuning uchun portfolio yaratishda eng avvalo inson o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olishi zarur. Chunki maqsadsiz faoliyat tartibsiz harakatga o'xshaydi. Agar inson o'z kelajagini tasavvur qila olsa, portfolio ham aynan shu yo'nalishda shakllana boshlaydi. Masalan:

kimdir kelajakda shifokor bo'lishni orzu qiladi;

yana kimdir axborot texnologiyalari yoki muhandislik sohasiga qiziqadi;

boshqalar esa san'at, sport yoki tadbirkorlik yo'nalishida o'zini ko'radi.

Demak, portfolio insonning kelajak maqsadlari bilan uyg'un holda shakllanishi kerak.

O'qituvchi: Kuchli portfolio yaratishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

Yutuqlarni tizimli jamlash

Har qanday sertifikat, diplom, tashakkurnoma yoki loyiha natijasi tartibli ravishda saqlanishi kerak. Chunki vaqt o'tishi bilan ayrim hujjatlar yo'qolishi yoki unutilishi mumkin. Portfolio esa insonning rivojlanish tarixini bosqichma-bosqich aks ettirib boradi.

Sifat va mazmun

Portfolio faqat hujjatlar soni bilan emas, balki uning mazmuni va sifati bilan baholanadi. Shuning uchun unga insonning haqiqiy qobiliyatini namoyon etadigan eng yaxshi ishlari kiritilishi kerak.

Masalan:

eng yaxshi loyiha ishlari;

ijodiy maqolalar;

ilmiy izlanishlar;

sport yoki san'atdagi natijalar;

ijtimoiy faoliyatga oid materiallar portfolio mazmunini boyitadi.

Dizayn va tartib

Portfolio kishilar haqida ilk taassurotni shakllantiradi. Shu sababli uning tartibli, estetik va tushunarli bo'lishi muhimdir. Chiroyli dizayn, aniq joylashtirilgan ma'lumotlar va tartibli tuzilma portfolio qiymatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda elektron portfolio yaratish imkoniyatlari kengayib borayotgani ham yoshlar uchun katta qulaylik yaratmoqda.

O'z-o'zini tahlil qilish

Portfolio yuritish insonni o'z ustida ishlashga undaydi. Chunki har bir yangi natija insonni:

o'z faoliyatini baholashga;

kamchiliklarini ko'rishga;

yangi maqsadlarni belgilashga undaydi.

Bu esa shaxsning refleksiv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kuchli portfolio yaratishning eng muhim jihatlaridan biri – insonning o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olishidir. Chunki qayerga borishni bilgan inson o'z portfoliosini ham aynan o'sha maqsadga mos shakllantira boshlaydi.

Biz yuqorida "El-yurt umidi" jang'armasi ijrochi direktori Gulnoza Ismoilovanning universitetlar tanlashga oid tavsiyalarini tingladik. Kelinglar, hozir dunyodagi hamda O'zbekistondagi TOP universitetlar reytingi bilan tanishamiz.

Vizual kontent

Dunyodagi va O‘zbekistondagi top universitetlar bilan tanishish

<https://youtu.be/H3zFvgFdidU>

O‘qituvchi: Dunyoning eng kuchli universitetlari faqat bahoga emas, balki insonning bilimga chanqoqligi, tashabbuskorligi, ijtimoiy faolligi va portfoliosiga ham katta e‘tibor beradi.

Ko‘pchilik ba‘zan “hali vaqtim bor” yoki aksincha “endi kech bo‘ldi” deb o‘ylaydi. Aslida esa ilm olish va o‘z ustida ishlashning aniq yoshi bo‘lmaydi. Eng asosiysi – inson o‘z ustida ishlashdan va o‘rganishdan to‘xtamasligidir.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulot davomida biz portfolio haqida suhbatlashdik. Balki ayrimlaringiz uchun bu oddiy hujjatlar to‘plamidek tuyulgandir. Ammo aslida portfolio – bu insonning mehnati, intilishi, orzulari va maqsadlari aks etadigan shaxsiy rivojlanish tarixidir.

Shuning uchun bugundan boshlab har bir yutug‘ingizni qadrlang, o‘z ustingizda muntazam ishlang, yangi bilimlarni egallashdan charchamang, faol va tashabbuskor bo‘ling, orzu qilishdan va katta maqsad qo‘yishdan qo‘rqmang.

Chunki insonning kelajagi uning bugungi intilishi va harakatlariga bog‘liq.

Yodingizda bo‘lsin: hayotda eng katta boylik – bu insonning bilimi, tajribasi va ma‘naviy kamolotidir. Portfolio esa ana shu boyliklarni jamlab, sizning shaxs sifatida qanday rivojlanayotganingizni ko‘rsatib turadigan muhim vositadir.

Uyda “Mening kelajakdagi portfoliom” nomli kichik sahifa tayyorlab ko‘ringlar. Unda o‘zingizning eng kuchli qobiliyatingiz, kelajakdagi orzu kasbingiz, erishmoqchi bo‘lgan 3 ta maqsadingiz va shu maqsad sari tashlaydigan ilk qadamingizni yozing. Kim biladi, balki bugun oddiy daftar sahifasiga yozilgan orzular ertaga sizning katta muvaffaqiyatlaringiz tarixiga aylanishi mumkin.

Shuning bilan darsimiz o‘z nihoyasiga yetdi, yangi o‘quv yilida ko‘rishguncha salomat bo‘ling!